

## O'ZBEKISTONDA SARGUZASHT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Tilovmurodov Dostonbek Furqat o'g'li

"Alfraganus University" nodavlat oliy ta'lim tashkiloti,

Xalqaro turizm menejmenti kafedrasini o'qituvchisi

Email: [d.tilovmurodov@afu.uz](mailto:d.tilovmurodov@afu.uz)

### ARTICLE INFORMATION

Volume: 1

Issue: 11

DOI:[https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1\\_iss11/a13](https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss11/a13)

### ABSTRACT

Turizm O'zbekiston iqtisodiyotining juda muhim qismidir va mamlakatning tabiiy resurslari, tog'larida, cho'llarda, qo'riqxonalarida, o'monlarda dam olish maskanlarida sarguzasht turizmni rivojlantirish uchun imkoniyatlar mavjud. Biroq, tabiiy resurslar muhofazasi, releflar, geografik joylashuv va demografik jihatlar sababli bu hududlarda sarguzasht turizmni rivojlantirishda bir qancha muammolar mavjud. Ushbu muammoni hal qilish uchun maqolada emperik, son va sifat parametrlarini tahlil qilish metodologiyalaridan jumladan intervyu va anketa so'rovnomalardan foydalilanigan. Maqolada madaniy, iqtisodiy, infratuzilmaiy omillarni hududlarda uzoq muddatlari sarguzasht turizm rivojlanishining muhim omillari sifatida belgilandi. Bundan tashqari, maqolada sarguzasht turizmini rivojlantirish uchun foydalanshlari mumkin bo'lgan taklif va tavsiyalar berildi.

### KEYWORDS

*turizm, sarguzasht turizmi, turizmni rivojlantirish, turist, turizm infratuzilmasi, mintaqaviy turizm.*

### Kirish(Introduction/Введение)

Sarguzasht turizmi global miqyosida o'sib bormoqda, ko'plab davlatlarda sarguzasht turizmini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda, bu xorijiy sayyoohlarning o'qimini ko'payishi va sarguzasht turizmi jalal o'sayotganligidan dalolat beradi. So'nggi yigirma yil ichida sarguzasht turizmi rivojlanishi tabiiy resurlarga asoslangan turizmnинг barcha turlarining ko'payishi bilan chambarchas bog'liq. Sarguzasht turizmi ko'pincha ochiq havoda dam olish va rekreatsiya, ekstremal faoliyat bilan birlashgan. Risk omillari bu sarguzasht turizmining ajralmas tarkibiy qismidir va ichki, tashqi motivlari turistni sarguzasht turizm faoliyatda ishtirok etishga undaydi [1,2].

Shu bilan birga ekstremal faoliyatdan olingan turistik tajriba bilan bog'liq. Sarguzasht turizmini rivojlantirish atrof-muhitga, iqtisodiyotga va mahalliy aholiga turizmning salbiy ta'sirlarni minimallashtirish bilan birga foydali natijalarini maksimal darajada oshirishga qaratilgan (bu madaniy tarix va mintaqaviy urf-odatlarni saqlash, resurslardan oqilona foydalananish, mahalliy aholi va tashrif buyuruvchilar xavfsizligini kafolatlash va mahalliy an'analarini himoya qilishni, yangi ish o'rinni, tadbirkorlikni yaratishni o'z ichiga oladi) [3,4].

Tabiiy resurslarni kelajak avlod uchun saqlab qolish, sarguzasht turizmi iqtisodiy rivojlanishni, atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy mas'uliyat o'tasidagi muvozanatni saqlashga qaratilgan turizmnинг bu turi atrof-muhit va mahalliy hamjamiyat uchun uzoq muddatlari iqtisodiy foyda keltirishga katta e'tibor berib zararli ta'sirlarni jumladan turistik oqiming haddan tashqari ko'pligi va resurslardan noto'g'ri foydalananishni shuningdek, madaniy va tabiiy yodgorliklarning yomonlashishini kamaytirishga qaratilgan.

### Adabiyotlar tahilili (Обзор литературы / Literature review).

Sarguzasht turizmi quyidagicha ta'riflanadi. Bu odamlarning bir joydan ikkinchi joyga ommaviy yoki individual harakati hisoblanib turitslar o'rganish uchun sayohat qilishadi, boshqalari yashash joyidan uzoqda bo'lishni xohlashadi [5].

Sarguzasht turizmi - bu odamlarning olis hududlarga, ekzotik va jozibador hududlarga sayohat qilish yoki sayohat qilish uchun qulay destinatsiyalardan tashqarida bir joydan boshqa joyga qilinadigan sayohat hisoblanadi. Sarguzasht turizmi - turistlar Instruktur-Gidlar yordamida parashyutdan sakrash, cycling, diving qilish kabi sarguzasht turlarini bajaradigan turizm turi.


Sarguzasht dam olish bilan bog'liq bo'lib bundan tashqari, ochiq havoda ta'lim, sarguzasht terapiyasi ham mavjud.

So'nggi yillarda butun dunyoda sarguzasht turizmi jalal sur'atlar bilan o'sib bormoqda, chunki sayyoohlар ilgari kashf etilmagan yo'nalishlarga tashrif buyurishadi. Bu noyob, beqiyos tajriba izlayotgan sayyo Hatchilarini o'ziga jaib etuvchi yangi manzilni sayohat qilish imkonini beradi. Sarguzasht turizmini ikki toifaga bo'lish mumkin: Hard va Soft adventure.

Turistik manzilgohlar, diqqatga sazovor joylar har xil xususiyatlarga ega. Ular ekzotik elementlarga ega bo'lgan chekka hududlari hisoblanib sarguzasht turizmidagi trekking, piyoda yurish, toqqa chiqish, snorkeling, rafting, osmonda sho'ng'in, suvg'a sho'ng'in va shunga o'xshash faoliyatni o'z ichiga oladi [7,8]. O'zbekistonda sarguzasht turizmini rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Sarguzasht turizmi uchun Chimyon tog'lari etaklarida ajoyib chang'i zonalari, "Zomin" turistik-rekreatsion zonasasi, pansionatlar yirik Chorvoq suv omborida water mobiling, Nurota tog'larining go'zal muhitida faol trekking va hiking, Aydarko'l ko'li yaqinidagi yoki Orol dengizi sohilidagi uy lagerlarda camping, Bildirsoy va Amirsøy resortlarida qishki va yozgi sarguzasht turlarini bunga misol qilib olsak bo'ladi. Sarguzasht turizmni rivojlantirish orqali turizmni iqtisodiyotiga ijobjiy ta'sirini kuchaytirishi va salbiy ta'sirini kamaytirishi mumkin.

Mintaqaviy darajada sarguzasht turizmini rivojlantirishda turli omillar muhim rol o'yaydi, ularni ikki guruhga bo'lish mumkin: tashqi (ekzogen) va ichki (endogen) omillar sifatida, alohida-alohida "vaqt" omili deb nomlanib turizm mavsumiylikka bo'g'liq [9,10].

Aytish joizki, bugungi kunda O'zbekiston jahon turistik bozori darajasida turizmni rivojlantirish strategiyasini qo'llab-quvvatlamoqda. Bu juda muhim, hududlarda sarguzasht turizmini rivojlantirish ommilarilari mavjud (1-rasm).



1-rasm. Sarguzasht turizmning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar tasnifi<sup>1</sup>

Tashqi (ekzogen) omillar tabiy va antropogen kelib chiqishi bo'lib, aslida sarguzasht turizmning rivojlanishi uchun sharoit yaratish sarguzasht turizmni rivojlantirishga kuchli, ko'p qirrali va qarama-qarshi ta'sir ko'rsatadi. Tabiiy-iqlim, geografik, ijtimoiy, iqtisodiy omillar sarguzasht turizmning rivojlanishi yo'nalishlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, sarguzasht turizmning salohiyati va jozibadorligini belgilaydi. Ekologik omillar turistning ehtiyojlarini qondirish darajasini sayohatdagi qulaylik darajasiga, mehmondo'stlik muhitiga, xavfsizlikka, sog'liqqa ta'sir qilish hissi darajasiga qarab belgilaydi.

Hududlarda sarguzasht turizmning rivojlanishiga ichki omillar (endogen) ta'sir ko'rsatadi bunday omillar quydigilar: joylashtirish, tashish, ovqatlanish, ekskursiya xizmatlarining sifati, chakana turistik savdo, turizm mahsulotlarini taqsimlash; tur mahsulotiga talab-taklif, bozor segmentatsiyasini kengaytirish, sarguzasht turizm faoliyatini muvofiqlashtirish rolini kuchaytirish va monopolashtirish jarayonlarini cheklash, sarguzasht turlar, mahsulotlarini ilgari surish, reklama qilish va sotishda ommaviy axborot vositalaridan samarali foydalish, jamoatchilik bilan aloqalarni takomillashtirishdan iborat. Adabiyotlar tahliliga asoslanib maqola quydagi gipotezalarini shakllantirdi.

H1-gipoteza. Tabiiy resurslarni to'g'ri foydalanish O'zbekistonda sarguzasht turizmning rivojlanishiga sezilarli ta'sir qiladi;


H2-gipoteza. Madaniy etnik resurslarni targ'ib qilish orqali O'zbekistonda sarguzasht turizmini rivojlanishiga yordam beradi;

H3-gipoteza. Iqtisodiy, Ijtimoiy, Geografik omillardan foydalanan O'zbekistonda sarguzasht turizmning rivojlanishida samarasini ko'rsatadi;

H4-gipoteza. Tegishli infratuzilma, turistik xizmatlar, sarguzasht turizmi mahsulotlari va hamyonbob narxlarni belgilash O'zbekistonda sarguzasht turizmning uzoq muddatli rivojlanishida amaliy ahamiyatga ega;

H5-gipoteza. Tegishli mahalliy turistik firmalarning strategiyalari va marketingini amalga oshirish O'zbekistonda sarguzasht turizmning rivojlanishiga asosiy rol o'yndaydi;

Adabiyotlar tahlilidagi gipotezalar asosida maqolada quydagi modeli taklif etildi (2-rasm).



2-rasm. Sarguzasht turizmning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar<sup>2</sup>

Ushbu muammolarni hal qilish uchun mutaxassislar sarguzasht turizmini muvozanatli o'sishini ta'minlash uchun ko'plab yechimlarni tavsiya qilishgan. Turizmning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik oqibatlarini hisobga olgan holda sarguzasht turizmni rivojlantirishning samarali yo'ldir. Bu infratuzilmani rivojlantirish, sarguzasht turlarni yaxshi rejalishtirilgan va atrof-muhit, madaniy resurlarni muhofaza qilish hamda

ulardan tog'ri foydalanish bilan muvozanatli bo'lishini kafolatlashga yordam berishi mumkin. Yana bir yo'l - mahalliy hamjamiyat turistik faoliyatni loyihalash va turistik xizmatlar sifatini boshqarishda faol ishtirot etadigan sarguzasht turizmni rivojlantirishdir. Bu infratuzilmani rivojlantirish mahalliy hamjamiyatlarning ehtiyojlari va qadriyatlariga mos kelishi va sarguzasht turizmdan keladigan iqtisodiy foydani kafolatlashga yordam berishi mumkin.

#### Tadqiqot usullari (Методы исследования /Methodology).

Maqolada empirik, sifat va son parametrlari tahlili metodologiyasidan foydalilanigan. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi O'zbekistonda sarguzasht turizmining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilishdan iborat. Ushbu tadqiqotda O'zbekistonning sayyohlik va sarguzasht turizm salohiyati haqida umumiylar ma'lumotni talab qiladi va bunga tegishli ma'lumot to'plandi, intervyyular, anketa-so'roqnomalar amalga oshirildi. Intervyyular mobil vositalarida yozib olinib, ma'lumotlar transkripsiya qilindi.

#### Tahlil va natijalar (Анализ и результаты /Analysis and results).

Tabiiy resurslardan samarali foydalanish sarguzasht turizmini rivojlantirishning muhim asosi bo'lsada, maqolada turli asosiy omillarning sarguzasht turizmiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. O'zbekistonda madaniy resurslarni rivojlantirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, tegishli infratuzilmani rivojlantirish hamda sifatlari turistik xizmatlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

1-jadval  
Sarguzasht turizmning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi resurslar tahlili<sup>4</sup>

Hard adventure				Soft adventure			
ATr	LTr	FTr	GDr	ATr	LTr	FTr	GDr
0.711				0.716			
0.529	0.718			0.648	0.917		
0.538	0.499	0.844		0.372	0.241	0.802	
0.589	0.379	0.488	0.77	0.632	0.530	0.334	0.717

ATr= Autonom resurslar, LTr=Litom resurslar, FTr=Fitor resurslar, GDr=Gidrom resurslar

Sarguzasht turizmimi rivojlanishiga ta'sir qiluvchi resurs toifalarini discriminant validity testing (SPSS) tahlili natijalariga ko'ra gidrom va litom resurslarining qiymati tadqiqotdagi boshqa resurs turlariga nisbatan yuqoriyoq qiymatga ega, ushbu resurs turlaridan optimal foydalanish sarguzasht turizmning hard adventure faoliyatini rivojlantirishda ijobji ta'sirini ko'rsatadi.

Tahlil natijalariga ko'ra gidrom va litom resurslarining sarguzasht turizmning soft adventure faoliyatini rivojlantirishda ham o'z ijobji ta'siriga ega.

Bundan tashqari, sarguzasht turizmining o'sishi turizm bozorida talab va taklif ortishiga olib keladi. Mahalliy hamjamiyatlar, turistik firmalar va sayyolharning faol ishtirotini o'z ichiga olgan sarguzasht turizmi doimo o'zgarib turadigan rivojlanayotgan turistik tushunchadir. Bundan tashqari, sarguzasht turizmini rivojlantirish bo'yicha adabiyotlardagi nazariy ma'lumotlarni tahlil qilish kerak, demografik omillar yosh, gender, bandlik va daromad kabilalar bilan integratsiya qilish hududlarda sarguzasht turizmning o'sishiga ta'sir qiluvchi omillari haqidagi konsepsiya va rivojlantirish mexanizmlari to'liqroq shakllanadi.

#### Xulosa (Заключение/Conclusion).

Ushbu maqolaning maqsadi O'zbekistonda sarguzasht turizmining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish va hududlarda sarguzasht turizmining rivojlanishini rag'batlantirish uchun tavsiya va takliflar berishdan iborat. Ushbu maqolada ko'rsatilgan beshta omil – "ekologik", "madaniy", "iqtisodiy", "infratuzilma" boshqa tadqiqotlarga asoslangan, ushbu maqolada qo'llanilgan sarguzasht turizmini rivojlantirish modelini taklif qiladi. Ushbu tadqiqot natijalarini shuni ko'rsatadi, madaniyat, iqtisodiy, infratuzilma va sifatlari xizmat ko'rsatish O'zbekistonda sarguzasht turizmi rivojlanishini baholashga ijobji ta'sir ko'rsatadi. Yuqorida qayd etib o'tilgan ishlar bilan birgalikda turizm sohasiga sarguzasht turizmini keng joriy etish maqsadida mintaqalarda ushbu ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Uzoq va chekka hududlarda sarguzasht turlarni ishlab chiqishni yo'lg'a qo'yish, bunda mahalliy va xorijiy turistlar uchun chegirmalarni belgilash;

2. Sarguzasht turizmining ochilmagan qirralarini keng targ'ibot qilishga qaratilgan innovatsion marshrutlarni amaliyotga tabbiq etish;

3. Turistlar uchun qulaylik yaratish maqsadida e-commerce, mobil ilovalardan, geoaxborot tizimlaridan keng foydalanishni yo'lg'a qo'yish;

5. Sarguzasht turlarni ishlab chiqish bo'yicha tayyorlanayotgan kadrlarning amaliy ko'nikmalarini uzlusiz shakllantirib borish, ekstremal faoliyatda turistlarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida instruktor-gid faoliyatini yo'lga qo'yish;

6. Sarguzasht turizmi rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini o'rganib ularning ijobji jihatlarini sarguzasht turlarni ishlab chiqishda samarali foydalanish tizimini yo'lga qo'yish;

Umuman olganda sarguzasht turizmini rivojlantirish turistlar uchun sulaylik yaratib, mahalliy va xorijiy turistlar oqimining oshishiga, xalqaro turizm bozorida raqabotdoshlik potensialini oshirishga yordam beradi.

#### References:

1. Xalilov, S. (2021). Milliy turizm tarmog'i raqobat ustunliklarini rivojlantirishda marketing innovatsiyalarining qo'llanilishi.
2. Сайфутдинов, Ш. С. (2023). THE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGY ON THE LONG-TERM SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE TOURISM SECTOR. ЖУРНАЛ ИННОВАЦИЙ В ЭКОНОМИКЕ, 6(6).
3. Abdurahmonov, S. (2023). ROLE OF SHOPPING TOURISM FOR DEVELOPING SUSTAINABLE TOURISM IN UZBEKISTAN.
4. Sayfutdinov, S. (2019). TURIZM RIVOJLANISHINI BOSHQARISHDA XORIJ TAJRIBASI.
5. Норбоев Одил Абраевич. (2024). CHARACTERISTICS OF THE FORMATION OF THE CLASS OF MIDDLE OWNERSHIP IN THE COUNTRY. Economics and Innovative Technologies, 12(5), 10–21.
6. Qutlimurotov, F. (2009). TUROPERATORLAR FAOLIYATIDA MARKETING TEKNOLOGIYALARI.
7. Musayeva, S. (2023). INNOVATIVE TRENDS IN THE APPLICATION OF SMART TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM AND HOTEL BUSINESS.
8. Kungratov, I. (2024). DIGITAL TRANSFORMATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN UZBEKISTAN: CHALLENGES, INNOVATIONS, AND FUTURE TRENDS. DTAI-2024, 1(DTAI).
9. Ye, B. H., Ye, H., & Law, R. (2020). Systematic review of smart tourism research. Sustainability, 12(8), 3401. <https://doi.org/10.3390/su12083401>
10. Winter, P. L., Selin, S., Cerveny, L., & Bricker, K. (2019). Outdoor recreation, nature-based tourism, and sustainability. Sustainability, 12(1), 81.
11. Milic'ević, S., Bosković, N., & Lakic'ević, M. (2021). Sustainable tourism development in mountain areas in Šumadija and Western Serbia. Journal of Mountain Science, 18, 735–748. <https://doi.org/10.1007/s11629-020-6239-4>
12. Tien, N.N. 2017. Monograph on analyzing performance in tourism businesses. Publishing House of National Economics University. Ha Noi